

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA ODOB-AXLOQ MASALALARI***Gulnora Umarova A'zam qizi,****Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrası**tayanch doktorant**u.gul.a786@gmail.com*

O'zbek mumtoz adabiyotida axloqiy-g'oyaviy masalalarni yuksak badiiy darajada ifodalashda Nizomiy, Sa'diy, Alisher Navoiy singari ulug' shoirlarning hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, Alisher Navoiy yaratgan “Hayrat ul-abror” dostoni nafaqat o'z davrining axloqiy-me'yoriy qarashlarini, balki umuminsoniy qadriyatlarni teran anglatgan asarlardan biridir. Bu doston orqali shoir insoniy fazilatlar, odob-axloq, adolat, ilm, kamtarlik, to'g'rilik va halollik kabi yuksak tushunchalarni targ'ib qiladi. Ushbu maqolada dostonning asosiy g'oya va mazmuni doirasida odob-axloq masalalarining badiiy talqini tahlil qilinadi.

“Hayrat ul-abror” – Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi birinchi dostoni bo'lib, unda shoir tasavvufiy, axloqiy va ijtimoiy masalalarni badiiy obrazlar orqali ochib beradi. Asarning asosiy maqsadi – odamzodga to'g'ri yo'l ko'rsatish, uni ezgulik sari boshlashdir. Dostonning deyarli har bir hikoyatida axloqiy bir saboq mujassam. Navoiy odobni inson kamolotining poydevori sifatida ko'rsatadi.

Bas ani inson atag'il beriyo-

Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo. (“Hayrat ul-abror”, 106-bet)

Bu misralar esa yuqoridagi misraga javoban bo'lib, unda inson bo'lishi uchun sabr, shukr va hayosi bo'lishi kerakligi, agar shu uch xislat kimdadir mavjud bo'lsa, shubhasiz, u inson deya atalmog'i lozimdir, degan fikrlar bildirilgan. Navoiy bu uch fazilatlarini dostonidagi boshqa o'rinlarda ham ta'riflab o'tadi. Jumladan, 6-maqolat odoblilik va hayoga bag'ishlangan, 7-maqolatda esa sabr, shukr va qanoat haqidagi fikrlar berilgan. 3-maqolatda sultonlarga aloqador fikrlar orasida ham shukronalik haqida keltirib o'tilgan.

Biri – aning ne'matig'a shukr erur,

Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur. (3-maqolat, 131-bet)

Bu o'rinda esa yana bir bor shukronalikka to'xtalib o'tilgan, Olloh banda shukr qilgani sari yana ne'matlaridan beraveradi, deyilgan.

Bo'lmasa ham shukr ila qoni' bo'lur,

Bazl ishidin nafsg'a moni' bo'lur. (7-maqolat, 180-bet.)

Bu baytda aynan hech narsasi bo'lmaganda ham odam shukr qilib qanoat qilsa, shu ahvolda ham xayr-u ehson qilib nafsni jilovlay olsa, u shohdir deyilgan. Navoiy dostonida har bir bobda axloqiy fikrlarini bildirib o'taveradi. Aynan vafo bobida vafodorlik, qanoat haqidagi maqolatda qanoat haqida yozish bilan cheklanmaydi. Boshqa maqolatlarda ham o'rni kelganda qanoat haqida ham, yolg'on so'zlash haqida ham hikmatli so'zlar, misollar, o'xshatish-u taqqoslashlar kiritib ketadi. Navoiyning bir tushunchani turli o'rinlarda turlicha berishida ham sabab bor. Kitobxon asarni o'qiganda bir tushunchaga takror-takror to'qnash kelaveradi va bu tushuncha va u tashiydigan ma'no o'quvchi ongiga singib boradi.

Navoiy halol mehnat qilish, adolatli bo'lish, hokimlar esa xalq oldida mas'uliyatli bo'lishlari lozimligini ta'kidlaydi. Doston ichida keltirilgan bir necha hikoyatlarda zolim podshohlar tanqid qilinadi, adolatli hukmdor esa maqtaladi. Bu orqali adolat axloqning eng muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchi maqolat sultonlar haqida bo'lib, bunda ham komil inson sifatлари berib o'tiladi.

Xotami adlingg'a sipehri baland,

"Rosti-yu rusti" bilan naqshband. ("Hayrat ul-abror", 129-bet)

Ushbu baytda adolatlilik va rostlik ulug'langan bo'lib, bu fazilatlar ham Navoiy asarlarini o'qishlilikini ta'minlab beradi. Bundan tashqari, Navoiy dostonidagi 10-maqolatni rostgo'ylikka bag'ishlagan bo'lib unda to'g'riso'zlikning foydalari va yolg'onchilikning zararlari haqida fikrlar berilgan va shu fikrlarni dalillash maqsadida turli o'xshatish, qiyoslashlardan, ilmiy ma'lumotlardan foydalanilgan.

O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning,

Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning?.

*Nay tuz uchun istar ani hol,
Chun tuz emas, egri ko‘rar go‘shmol.
Nayza bo‘lub tuzlugidin sarbaland,
Chirmosh uchun bandg‘a qolib kamand. (“Hayrat ul-abror”, 219-bet)*

Maqolatda to‘g‘rilik va egrilik turli buyumlar vositasida tushuntirilgan. Bu har qanday yoshdagi o‘quvchiga tushunarli bo‘ladi. Bu o‘rinda tekis o‘q va egri yer, nay va chang (musiqa asbobi), nayza va arqon bir biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Dostonda bundan tashqari, sham va parvona, sarv va sumbul kabilar ham bir biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu hayotiy timsollar xayoliy misollardan ko‘ra yaxshi samara bera oladi. Tushunishga, insonlarda to‘g‘rilikka, to‘g‘riso‘zlikka chorlashga, yolg‘on bilan yashamaslikka undaydi. Keyingi misralarda bu davr egrilikni istaydi, shunday ekan sen to‘g‘rilikni, haqiqatni talab qilsang, bu davrga yoqmaysan. Bu davrda rost so‘zlagan kishida doimo kamchiliklar, yetishmovchiliklar bo‘ladi, degan mazmundagi fikrlar bitilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Navoiy davrida ham ko‘plab adolatsizliklar bo‘lgan va Navoiy ham necha bor haqsizliklar qurboni bo‘lgandir. Bugungi kunimizda ham haqiqatni gapiruvchilardan ko‘ra yolg‘on so‘zlovchilar ulug‘langanining guvohi bo‘lib qolamiz. Navoiy bu so‘zlari bilan bizni bunday qilmasligimizni, doimo adolat tomon bo‘lishimiz kerakligini uqtirmoqchidir. “Hayrat ul-abror”da kamtarlik – chin donishmandlik belgisi sifatida talqin etiladi. O‘zini ulug‘ tutgan, lekin odobsiz kishilar qattiq tanqid qilinadi. Navoiy kamtar, halol, odobli kishini har qanday maqom egasidan ustun qo‘yadi. Navoiy ilmni insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi vosita sifatida ko‘rsatadi, biroq bu ilm odob bilan bezalmasa, zarar keltirishi mumkinligini ham eslatadi. Shunday holatlar dostonda hikoyaviy shaklda berilgan. Oltinchi maqolatda odoblilik haqida so‘z boradi. Bu maqolatda ham boshqa maqolatlar singari turli go‘zal tashbehlar keltirib o‘tilgan. Sh. Sirojiddinov “Navoiyshunoslik” kitobida ushbu maqolat haqida “Navoiy bu bobda turli ijtimoiy munosabatlar – oila va er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi, ota-ona oldidagi burchni bajarish, jamiyatdagi turli qatlamlar orasidagi munosabatlar, podshoh

xizmatida bo‘lish odoblari haqida aniq tavsiya va foydali maslahatlar beradi.”¹ degan fikrlarni bildirib o‘tgan.

Chunki tavozu’g’a xam o’ldi hilol,

Bo’ldi fuzunroq anga har kun kamo.

“Tarki adabdin biri kulgu durur,

Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Qahqahadin kabk navo kelturub,

Boshig’a ul kulgu balo kelturub. (“Hayrat ul-abror”, 167-bet)

Bu parchalarda oyning qaddi bukikligi odoblilikka mengzalib, aynan shu kamtarligi uchun kundan kun mukammallashib boradi. Kulgu – odobsizlikning bir ko‘rinishidir. Bunga misol tariqasida kaklikning sayrash, atirgulning kulib ochilishi, chaqmoqning chaqishi kabi misollar berilgan. Kaklik qattiq sayragani sabab ovchilar uni ovoizdan payqab qolishadi va tutib olishadi. G‘uncha esa kulib ochilgani sabab har yerga sochilib xazon bo‘ladi. Chaqmoq esa kulib-kulib tog‘ ichiga yoki yer qariga kirib ketadi. Shu kabi hayotiy dalillar keltirilgan. Yettinchi maqolatda qanoat borasida Navoiy qarashlari berilgan bo‘lib, barchasi inkor qilib bo‘lmaydigan hikmatlardir.

“Kulbada darveshki, qoni’ durur,

Foyiq erur shahg’aki, tomi’ durur.” (“Hayrat ul-abror”, 179-bet)

Kulbada yashasa ham qanoat qiluvchi darvesh, qasrda yashasa-da qanoatsiz bo‘lgan shohdan afzaldir. Bu o‘rinlar ham inson ma’naviyatini oshirib, nafsni jilovlashi kerak ekanligini eslatib turadi.

O‘n birinchi maqolat ilm ahli haqida bo‘lib, Navoiy olim va johil odamlarni qarshilantirish asosida ta’riflaydi. Bunda olim odamning xorligi, ilm yo‘lida chekkan jafolari va johil odam insonlar qonini to‘ksa ham hurmat-e’tibordaligi, zarlarga burkanib, rohatda yashashi haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, Navoiy olim odam mansabga uchmasligi kerakligi, pastkashlik qilmasligi, bu dunyo moliga muhabbat qo‘ymasligi, agar bularga amal qilmasa, u bilimsiz bo‘lgan bo‘ladi, deb aytib o‘tadi.

¹ Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. –B. 97.

“Hayrat ul-abror”da tasavvufiy g‘oyalar asosida axloqiy yetuklik – Allohga yaqinlik yo‘lida zaruriy shart sifatida ko‘rsatiladi. Bu yo‘l esa nafsni tiyish, sabr, shukr, tavoze, muhabbat va qanoat orqali amalga oshadi. “Hayrat ul-abror” dostoni – odob-axloq darsligi sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Alisher Navoiy ushbu asar orqali zamonasining muhim ijtimoiy, axloqiy muammolarini teran yoritib, o‘quvchini nafaqat badiiy zavq bilan to‘ldiradi, balki uni fikr yuritishga, komil inson bo‘lishga undaydi. Doston bugun ham dolzarbligini yo‘qotmagan, balki yosh avlod tarbiyasida bebaho manba sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lgan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020. –384 b.
2. Ishoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014. – 320 b.
3. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1972. – 784 b.
4. Sirojiddinov Sh. Yusupova D. Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 576 b.